



ISSN: 1994-4233  
E-ISSN: 2181-1237  
DOI: 10.36078

*Filologiya Masalalari*  
*Philology Matters*

ILMIY-METODIK  
JURNAL

2025/2



Received: April 13, 2025  
Accepted: June 22, 2025  
Available online: June 25, 2025

## Orzigul Hamroyeva

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Alisher Navoi nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### BOBUR LIRIKASIDA QOFIYANING BADIY VAZIFASI

#### ANNOTATSIYA

Tadqiqotning maqsadi Zahiriddin Muhammad Bobur lirik merosining poetik xususiyatlarini aniqlash barobarida shoir qofiya tizimining turkiy qofiya nazariyasiga ta'siri masalalarini ko'rib chiqishdan iborat. Mumtoz adabiyotda shoirning mahorati mohiyat va tasvirni berish uslubi bilan belgilangan. Natijada mumtoz shoirlar ijodida mazmun va shakl butunligi takomillashdi. Xususan, Bobur ijodida bu tamoyil shoir uslubining asosini tashkil etadi. Shoirning poetik shakllarga qo'ygan talabi, poetik shakllardan foydalanish prinsipi ijodining bosh tamoyili sanaladi.

Tadqiqotning vazifasi bayt strukturasi qofiyaning o'rini belgilash, shoir lirikasining qofiya tizimini tadqiq etish va shoir poetik mahoratini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va badiiy, statistik tahlil va sharhlash usullaridan foydalanildi. Bobur lirikasining qofiya tizimi Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlar lirikasining qofiya tizimi kontekstida qiyosiy o'rganildi: ularning o'xshash va farqli jihatlari ochib berildi. Shoir badiiy maqsadining qofiyada aks etishini ko'rsatib berishda badiiy tahlil va sharhlash usullaridan foydalanildi. Shoir baytlari, misra tarkibidagi so'zlarning joylashuv tartibi, ularning mazmun va shaklga ta'siri masalasini yoritishda struktur tahlil metodi, she'r yaratilgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoit o'rganilib, muallif aytmoqchi bo'lgan yashirin ijtimoiy yoki siyosiy mohiyatni sharhlashda kontekstual metodlarga tayanildi.

Maqola natijasi sifatida Bobur lirik merosining o'ziga xos xususiyatlari, poetik ko'lami borasida

## Oydin Babaniyozova

Teacher  
Urgench State University named after Abu Raykhan  
Beruni  
Urgench, Uzbekistan  
E-mail: oydin.babaniyozova.96@mail.ru  
ORCID iD: 0009-0009-5140-4949

### A LINGUOPOETIC INTERPRETATION OF HUMAN AND ANIMAL IMAGES IN THE WORKS OF HERMANN HESSE

#### ABSTRACT

This study aims to determine the poetical traits of Zahiriddin Muhammad Babur's lyrical legacy and investigate how his rhyme scheme influenced Turkic rhyme theory. The essence and technique of representation determine a poet's proficiency in classical literature. Thus, one characteristic of classical poetry is the coherence of form and content. Specifically, this idea forms the basis of Babur's poetical approach. To convey his artistic meaning, the poet used rhyme. The purpose of the study is to evaluate Babur's poetical skill and rhyme scheme.

The task of the study is to determine the place of rhyme in the structure of the verse, to study the rhyme system of the poet's lyrics, and to reveal the poet's poetic skill.

The research employs comparative-historical analysis and literary interpretation methods. Babur's rhyme system is examined in the context of Alisher Navoi and other classical poets' lyric poetry, revealing their similarities and differences. Artistic analysis and interpretation techniques were applied to demonstrate how the poet's artistic purpose is reflected in rhyme.

The study resulted in theoretical conclusions regarding the unique features and poetic scope of Babur's lyrical heritage. It was revealed that rhyme serves as a fundamental poetic element in Babur's poetry, ensuring both artistic intent and structural integrity. This was demonstrated through textual analysis of individual verses.

The conclusion highlights the significance of rhyme in Babur's lyrical heritage, emphasizing

ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi. Shoir lirikasida qofiya muhim poetik unsur bo'lib, shoirning badiiy maqsadi va shu bilan birgalikda she'r butunligini ta'minlovchi asosiy unsur ekanligi baytlar misolida ochiqlandi.

Xulosa qismida Bobur lirik merosida qofiya muhim poetik unsur ekanligi, shoir adabiy merosi turkiy qofiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi, radif, hojibning shoir ijodiyotidagi o'rni, qofiyaning turli jihatlariga ko'ra turlarining ishtiroki shoir badiiy mahoratining in'ikosi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi kabi ilmiy-nazariy xulosalar taqdim qilingan.

**Kalit so'zlar:** manba, matn, qofiya, radif, hojib, qofiya harflari, qofiya harakatlari, g'azal, ruboiy, bayt.

## KIRISH

She'r butunligini ta'minlovchi asosiy unsurlardan biri qofiyadir, hatto she'r binosini ushlab turuvchi asosiy tirgaklik qofiya asosida yuzaga chiqadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Garchi biz qofiya nazariyasini arab, fors nazariyasi asosida shakllanganini manbalar asosida e'tirof etsak-da, turkiy til qonuniyatlari asosida bu nazariya qayta ishlandi, takomillashtirildi. Mumtoz shoirlar ijodida vazn kabi qofiyaning arab va fors qofiyasi ta'siridagi shakllari uchrasa-da, turkiy qofiyaning asosi, paydo bo'lishi turkiylarning asl vazni bo'lmish barmoq vazni bilan parallel paydo bo'lganini bir qancha manbalar tasdiqlaydi. Shu sabab Shayx Ahmad Taroziy "Funun ul balog'a" asarida she'rning asosi vazn (aruz) emas, aynan qofiya ekanligini ta'kidlagan edi [Taroziy, 1996; 65]. Turkiy she'riyatda, shoirlar ijodida buning amaliy ifodasini ko'rish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, lirikasi badiiylik mezonlari, poetik qonuniyatlar asosida tadqiq etilsa, shoir poetik olami mukammal va beishlov, betakror ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Aslida har bir shoir ijodida qofiyaning o'z o'rni bor. Shoir anglatmoqchi bo'lgan mohiyatning asosini qofiyada berishga harakat qiladi. Chunki qofiya ohangdorlikka asoslangani, mantiqiy urg'u olganligi bois ham badiiy maqsadni tashuvchi asosiy unsur sanaladi. Bu - qofiyaga oid umumiy qonuniyat. Biroq har shoirning qofiyaga yuklagan o'z maqsadi bo'ladi. Shu jihatdan an'anaviylik va novatorlik masalalari tadqiq etiladi. Bobur g'azallari qofiya tizimining tadqiqi shoir ijodida an'anaviylikdan ko'ra novatorlik, o'ziga xoslik tamoyillari ustuvor ekanligini ko'rsatdi. Bu tadqiq shoir lirikasida qofiyaning o'rni masalasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelinishiga asos bo'ldi:

1. Qofiya baytdagi poetik shakldan ko'ra shoirning badiiy maqsadini yetkazuvchi asosiy vosita vazifasini bajargan;
2. Shoir ijodida asliy qofiyaning ishtiroki she'r butunligini ta'minlab beruvchi asosiy mezon vazifasini bajargan;

that his poetic legacy serves as a valuable source for the theoretical foundations of Turkic rhyme. Additionally, the role of radif and hajib in his poetry, the classification of rhyme based on various characteristics, and its function as a reflection of the poet's artistic skill are discussed from a theoretical perspective.

**Key words:** source, text, rhyme, radif, hajib, rhyme letters, rhyme movements, ghazal, rubai, bayt.

3. Qofiyaning qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra mujarrad qofiya turining qo'llanishi yetakchilik qiladi;

4. Shoir badiiy yukni asosan qofiya va radifga yuklagan, shu bois shoir lirikasida muraddaf baytlar salmoqli hajmga ega;

5. Inversiya asosidagi joylashuv bayt kompozitsiyasini belgilab bersa-da, fe'l so'z turkumiga oid so'zlarning qofiya sifatida keltirilishi shoir uslubidagi o'ziga xoslikni belgilab bergan.

### TADQIQOT METODLARI

Bobur lirikasi qofiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shoir poetik mahoratining turkiy adabiyotdagi ahamiyatini belgilashda *qiyosiy-tarixiy va badiiy, statistik tahlil va sharhlash usullaridan* foydalanildi. Xususan, mumtoz qofiyaning nazariy asoslari va uning amaliy natijasini taqdim qilishda qiyosiy-tarixiy metodning turli shakl va usullari asos qilib olindi.

Ma'lum ilmiy-nazariy qonuniyat uning amaliy natijasining hosilasi sifatida shakllanadi. Adabiy jarayon va adabiy muhit ilmiy-nazariy qonuniyatning o'zgarishi, takomillashishi yoki inkor qilinishi bilan bog'liq yangi qonuniyatlarning yaratilishiga asos bo'ladi. *Qiyosiy-tarixiy tahlil* ma'lum adabiy hodisa: adabiy tur, janr, vazn, qofiya turlari mutatsiyasi va transformatsiyasi bilan bog'liq jarayonlarning umumiy va xususiy jihatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil usuli Boburga qadar turkiy adabiyotning poetik xususiyatlari: qofiya va badiiyati masalalarini o'rganish barobarida Bobur lirik merosida bu qonuniyatlar qanday ahamiyat kasb etgani va uning turkiy adabiyotga ta'siri xususidagi ilmiy-nazariy qonuniyatlarni ishlab chiqishda yaxshi samara beradi.

Qofiya poetik unsur sifatida bayt strukturasi ohangdorlikdan tashqari shoir badiiy maqsadining ifodasi vazifasini ham bajaradi. Qofiyadosh so'z sifatida tanlangan so'zlarning mazmuni she'r mohiyatini belgilab beradi. Qofiya harflariga tushadigan urg'u va takrorlar ham ayni vazifani bajaradi. Bu jarayon qofiyaning bir necha jihatiga ko'ra turlarini shakllanishiga asos bo'ladi. Shoir lirikasidagi qofiya turlarining statistik ko'rsatkichi esa shoir lirikasining mavzu mundarijasi, poetik xususiyati, davr adabiy muhitini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Qofiyaga oid arabiy, forsiy, turkiy risolalarda qofiya "misra oxiridagi ohangdosh so'z" deya ta'rif beriladi. Nasiriddin Tusiy "Me'yor ul ash'or" asarida qofiya faqatgina misra so'ngida emas, bayt va misraning istalgan o'rnida kelishiga ishora qilgan holda bayt misralariaro ohangdoshlik hosil qilgan so'zlarga nisbatan qofiya atamasini qo'llash kerakligini ta'kidlaydi [Tusiy, 1992]. Va qofiya shunchaki poetik shakl emas, u shoirning badiiy maqsadini yuzaga chiqaruvchi asosiy birlik ekanligini ta'kidlaydi. Qofiyaga oid risolalarda qofiya, radif, hojib, qofiya harflari, qofiya harakatlari, qofiya ayblari, qofiyaning taqti' imkoniyatlariga ko'ra turlari, qofiyaning raviyning ishtirokiga ko'ra turlari, qofiyaning qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra turlari nazariy qonuniyatlar asosida tushuntiriladiki, bu ilmiy-nazariy qonuniyatlar qofiya shunchaki poetik shakl degan tasavvur uyg'otadi [Shayx Ahmad Taroziy, 1996]. Vaholangki, qofiya sharhlash ilmida ham o'z o'rniga ega ochqich, kalit vazifasini baja-

radi. Qofiyadagi mukammal ohangdorlikni ta'minlab beruvchi bu kabi qonuniyatlar mazmunga nisbatan ikkalamchi vazifani bajaradi. Ba'zi shoirlar qofiyaning shakliiy mukammaligi yo'lida mazmunni qurbon qilishadi. Ba'zi shoirlar esa shaklni mazmunga bo'ysundiradi. Qofiyadagi ba'zi ayblar tabiiy shaklda mazmun uchun xizmat qiladi [Hamroyeva, 2024]. Shakliiy jihatdan ayb sifatida baholanadigan iyto, ikvo, iqfo, sinodlar aslida kerakli jihatlardek tuyuladi. Bu esa shoir mahoratining hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida baytlar *tahlili* va *sharhlash usuli* shoir badiiy tafakkurining qofiyada aks etishini ko'rsatishda asosiy mezon vazifasini bajaradi. Bobur lirikasida qofiyaning turli jihatlariga ko'ra turlarini aniqlash va ularning umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini belgilashda qofiya turlarining qollanish miqdori statistik tahlil usuli orqali taqdim qilindi.

Bobur qofiyadan badiiy maqsadining ifoda shakli sifatida foydalangan. She'rdagi kutilmagan va favqulodda so'zlarning qofiyadosh keltirilishi shoirning qofiya qo'llash qonuniyatlariga rioya qilish maqsadi bilan emas, mazmundagi o'ynoqlik va o'ziga xoslikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Ulki manga yori dilnavoz ko'rundi,  
Javrni ko'rsatti ko'p-u oz kovrundi.

Bo'ldi boshim past poyibo'sida oxir,  
Garchi burun asru sarafroz ko'rundi.

Sening uchun ulki boshin o'ynamadi hech,  
Sanga ajoyibki ishqiboz ko'rundi.

Ishq borida saloh-u tavba-u taqvo,  
Borchasi tahqiq bil, majoz ko'rundi.

Dushman jon o'ldi, ne qilay sanga, Bobir,  
Ulki manga yori dilnavoz ko'rundi [Bobur, 1965; 56].

Shoir besh baytli ixcham shaklda yozilgan ushbu g'azalning qofiya tizimini mazmunga bo'ysundirgan. Matla'dagi *dilnavoz – oz* so'zlari g'azal mazmunini o'zida aks ettirgan. Lirik qahramon besh bayt orqali dilnavoz – yorga ta'rif beradi, g'azaldagi mantiqiy urg'u ham aynan shu so'zga tushgan. Shoir dilnavozga oshiq sifatida uning ko'rsatgan jabrini ko'p bo'lsa ham, oz ekanligini, uning qoshida ilgari sarafroz bo'lgan boshi aslida quyidaligini, oshiqning yordan e'tibor umidi sabab aslida ma'shuqa boshini o'ynatmagan bo'lsa-da, oshiqqa e'tibor ko'rsatmagan bo'lsa-da, oshiq uchun ishqiboz ko'ringani ifodalari *oz, sarafroz, ishqiboz* kabi o'ziga xos mohiyatni anglatishga va kutilmagan o'xshatishlarni yuzaga kelishiga asos bo'lgan. G'azalning to'rtinchi baytidagi *majoz* so'zining qofiyadosh so'z sifatida keltirilishi g'azalning asl mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Ishq borida saloh-u tavba-u taqvo,  
Borchasi tahqiq bil majoz ko'rundi.

Ishq yo'lida saloh, tavba, taqvo kabilar aslida majoz ekanligi, majozlar vosi-

tasida Haqqa erishish, Dilnavozni anglash mumkinligi *majoz* kalit soʻzi orqali ifodalangan. Bobur gʻazalning maqtaʼsida matlaʼning ilk misrasini radd ul-matlaʼ sanʼati orqali qayta keltiradiki, har narsada, taqdirning har chizigʻida, hayotning har sinovida, qiynogʻida ham ul yor lirik qahramonga *yori dilnavoz* shaklida koʻrinaverishini taʼkidlaydi.

Shoirning *lola* taʼrifiga bagʻishlangan gʻazallarida ham ana shunday goʻzal ifodaning qofiya bilan uygʻun holda keltirilganiga guvoh boʻlish mumkin. Qofiya sifatida keltirilgan soʻzlar goʻyo lola shakli va nozikligiga hamohang yengillik va noziklikni koʻz oʻngingizda gavdalanishiga sabab boʻladi.

Xating aro uzoring sabza ichida lola,  
Ul chashmi pur xumoring loladagʻi gʻazola.

Barcha parilar, ey jon, girdingda zor-u hayron,  
Goʻyo erur namoyon oy tegrasinda hola.

Mehr-u vafoni agʻyor koʻp koʻrdi sendin, ey yor,  
Javr-u jafoni bisyor qilding manga havola.

Hajringda, ey parirol, koʻzumdin uchi uyqu,  
Har kecha tonggʻa degru ishimdur oh-u nola.

Yuz sahfasinda xatlar yoshdinki har taraf bor,  
Ishqingda Bobir aylar bu navʼ yuz risola [Bobur, 1965; 35].

Oshiqona ruhga lolaning tashqi koʻrinishi, ichki va tashqi xususiyatiga berkitilgan maʼshuqaning goʻzal surat va siyrati ifodasi boburona kashfiyot sifatida eʼtirof etilishga arziydi. *Lola, gʻazola, hola, havola, nola, risola* qofiyadosh soʻzlar zamiridagi mazmunga lolaga xos xususiyatlar bilan bir butunlikda oshiqqa xos ifodalar ham singdirilgan. Qofiyaning asliyi mujarradi muqayyad qofiya turini hosil qilgan bu soʻzlar shoirning badiiy maqsadiga uygʻun unli tovush bilan tugagan, raviy (a unlisi) bilan tugagan qofiyadosh soʻzlarda mantiqiy urgʻu odatda raviyga tushadi va bu esa gʻazalning poetik koʻlamini koʻrsatib beradi.

Xating aro uzoring sabza ichida lola,  
Ul chashmi pur xumoring loladagʻi gʻazola.

Matlaʼ mohiyatiga eʼtibor qilinsa, maʼshuqaning betimsol uzori yuzi xatt (tuklar) aro sabza ichidagi lolaga qiyoslanadi. Shoirona topildiq asosida beriladigan bu hodisot yashillik orasida lolaning koʻrinishiga oʻxshatiladi. Yashillik orasida lola qanday betakror va nozik, goʻzal koʻrinsa, maʼshuqaning yuzi tasviri ham ana shunday tamsil asosida namoyon boʻladi. Maʼshuqaning nozik xumori, oʻynoqi qarashi, nigohi esa lolaning ohudek yengil harakatiga, tebranishiga qiyos qilinadi. *Loladagi* sifatlar goʻzal poetik ifodalar: soʻz, vazn, qofiya, badiiy tasir vositalari orqali maʼshuqaga koʻchiriladi. Gʻazaldagi boshdan oyoq noziklikka asoslanuvchi ushbu ifodalar toʻlaqonli qofiyadosh soʻzlar orqali amalaga oshirilgan.

Badiiy matn butunligini taʼminlab beruvchi asosiy shartlardan biri shakl va maz-

munning mutanosib holda kelishidir [Rashid ad-din Vatvot, 1985, 22]. Matn ta'sirining kuchi va ijodkor maqsadining aks etishi bevosita mazmun va shakl uyg'unligiga bog'liq. Shoir she'r shakli va poetik unsurlardan unumli foydalana olsagina mukammal asar namunasi yaratiladi. Poetik shakllar shoir maqsadini etkazishda vosita bo'lib xizmat qilishi mazmunning yutug'ini ta'minlab beradi.

Demakki, shoir qofiyadan shunchaki shakl sifatida emas, mazmun ifodasining asosiy tamoyili sifatida foydalangan. Bu tamoyil shoir lirikasining asosini tashkil etadi.

## NATIJALAR VA MUNOZARA

Qofiyaning qo'llanishi uning bir qancha turlarining shakllanishiga asos bo'ladi. Qofiyashunoslikda qofiyaning qo'llanishiga ko'ra asliy, g'ayrima'muliy va shoygon kabi turlari ajratiladi. Asliy qofiya. Asliy qofiyada qofiyadosh so'zlar asl asosdan tashkil topishi talab qilinadi: *makon – jon – shon* shaklida. Asliy qofiyada raviy ham qofiyadosh so'zning asosida joylashadi: *hubob – gulob, habib – raqib, hur – nur, gul – mo'l* kabi so'zlar asliy qofiya sanaladi.

Buzulg'on bu mening ko'nglumni, ey hur,

Qil emdi bir tabassum birla ma'mur [Hamroyeva, 2022; 67].

Baytdagi *hur – ma'mur* qofiyadosh so'zlar asl asosdan tashkil topgan, "re" harfi raviy sifatida qofiya ohangdorligini ta'minlab bergan. Qofiyai ma'muliyda qofiyadosh so'zlar tarkiban asos holida bo'lmay, ajrala oladi. Ya'ni qofiyadosh so'zlarning asoslari emas, qo'shilgan shakllar ohangdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Raviy asl kalimada emas, unga qo'shilgan shakllardan tanlanadi. *Rost – paydost* so'zlari o'zaro qofiyadosh so'zlar sanalsa, "te" harfi raviy sanaladi. So'zlar tarkibiga e'tibor qilinsa, *rost* so'zidagi "te" asosda (asliy qofiya), *paydost* so'zidagi "te" esa qo'shilgan "ast" shaklidan olinib, bu so'zlar qofiyadosh so'z sifatida taqdim qilingan. *Rost* va *paydo* so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'la olmaydi. Bu qofiyadoshlik *rost* so'zidagi "te" (qofiyai asliy), *paydost* so'zidagi "te" (qofiyai ma'muliy) orqali amalga oshirilgan. Yoki *pordam - afshordam* so'zlaridagi *pordam* (qofiyai asliy) va *afshordam* (qofiyai ma'muliy) so'zlarida ham ayni xususiyat ko'zga tashlanadi. Qofiyashunoslikda qofiyai asliy va qofiyai ma'muliy bir qofiyadosh so'zlar sifatida qabul qilish qofiyadagi eng asosiy kamchilik sifatida ko'rsatiladi. Shoygon qofiya turida ham ma'muliy qofiya turi kabi raviy asosda emas, asosdan keyingi shakllar tarkibida keladi. Ya'ni o'zaro ohangdosh bo'lmagan so'zlarning asosdan keyin qo'shiluvchi shakllar orqali qofiyadoshligi ta'minlanadi. *Jon – jahon* qofiyadosh so'zlaridagi ikki sokin harf: "alif" – ridf, "nun" esa raviy sanaladi. Bu qofiyadosh so'zlar asliy qofiya sanaladi. Vazifasi jihattan ikki sokin harf birgalikda ko'plikni bildiradi. *Oshiqon – tolibon* (Ushbu qofiyadosh so'zlardagi "alif" va "nun"ning birikuvi ko'plik ma'nosini ifodalagan – O.H) so'zlarida ham bu harflarning vazifasi bir xil. Ammo bu harflar asosda emas, shakllar tarkibida kelgan. Ma'muliy qofiya turidan farqli o'laroq shoygon qofiya turida ma'lum harflarning birikuvi belgilab berilgan.

Bobur ruboiylaridagi qofiyadosh so'zlarning deyarli barchasi asliy qofiya turiga mansub bo'lib, ularning qo'llanishi ruboiy mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim

ahamiyat kasb etgan.

Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qtur,  
 Bir lahza-yu, bir nafas qarorim yo'qtur.  
 Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,

Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur [Bobur, 1965; 168].

Vatan sog'inchi va lirik qahramon tuyg'ularining ifodasi aks etgan ruboiyda "yo'qtur" so'zi radif vazifasida ma'noni kuchaytirish vazifasini bajargan. Odatda radifning qo'llanishi bir qancha maqsadlar asosida yuzaga chiqadi: ohangdorlik va ma'noni kuchaytirish. Ruboiydagi "yo'qtur" so'zi Bobur qadrlagan uchala ish ham unga nasib etmaganini kuchaytirib ko'rsatish vazifasini bajargan. She'riy matndagi *diyorim – qarorim – ixtiyorim* so'zlarida "r" harfi raviy sifatida so'zlarning asosi tarkibida ishtirok etgan, bu esa bundan qofiyadosh so'zlar asliy qofiya ekanligini ko'rsatadi. Shoir tomonidan keltirilgan qofiyadosh so'zlarning tartibi ham tadrijiy mohiyat asosida shoir qalbidagi kechinmalarning darajotini belgilab bergan. Shoir dastlab do'st-u yorlarsiz, vatansiz ekanligini aytadi, bu vatansizlik esa uni har nafasda bezovta qilayotgani, azoblayotgani "qarori yo'qlik" birikmasi orqali taqdim qilinadi. Shoir ruboiylarning aksariyatida uchinchi misra to'rtinchi misradagi xulosaviy fikr uchun ko'prik vazifasini bajaradi. Ushbu ruboiyda ham ayni xususiyat ko'zga tashlanadi. Bu ko'prik misralardagi mazmuniy ketma-ketlik yoki qarshilantirish asosida yuzaga keladi. "Yo'qtur" radifli ruboiydagi uchinchi va to'rtinchi misradagi bog'liqlik lirik qahramon sababchi ikki voqeani bir-biriga zidlash orqali shakllantirilgan, "ixtiyorim" so'zi garchi ikki marotaba qaytarilgan bo'lsa-da, ruboiy uslubiga bo'yoqdorlik bergan. Shoir yorsiz, diyorsiz, qarorsiz holat uni ixtiyorsiz qilib qo'rganini to'rtinchi misra orqali ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, ruboiy mohiyatining asosiy ustuni qofiyadosh so'zlar orqali berilgan va shoirning uslubiga aylangan.

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,  
 G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.

Ne nav' bitay firoq-u g'urbat sharhin,

Kim ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur [Bobur, 1965; 170].

Tahlilga tortmoqchi bo'lganimiz falsafiy mazmundagi ushbu ruboiyda ham asliy qofiya ruboiyning mazmun-mohiyatini anglatishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ruboiyning qofiyalanishiga ko'ra xosai ruboiy turiga kiruvchi ushbu ruboiyda *ram – kam – nam* so'zlari qofiyadosh so'zlar sifatida tanlangan bo'lib, qofiyadosh so'zlar raviy bilan tugagan. Odatda raviy bilan tugagan muqayyad qofiya turi fikr, mohiyatni tez, qisqa va aniqroq shaklda yetkazish maqsadida keltiriladi. Raviydan keyingi qofiya harflarining kelishi ohangdorlik va ma'noni kuchaytirish kabi poetik maqsadlarni yuzaga keltirishda muhim ahamiyatga ega [Rustamov, A. 1976, 18]. Chunki raviydan keyingi huruflar qofiyadosh so'zlar tarkibida bir xil harflardan tashkil topadi, bu esa takroriylikni, takroriylik asosida ohangdorlik, ohangdorlik asosida ma'no kuchayishi yuzaga keladi. Ruboiyda keltirilgan *ram – kam – nam* so'zlari bir bo'g'inli so'zlardan tashkil topgan va shu bilan birgalikda ortiqcha ohangdorlikdan xoli raviy bilan tugagan. Demak, shoirning asosiy maqsadi anqlik. Hijron – bir qafas. Demakki, qafasda hech kim, hech narsa erkin bo'la olmaydi. Shuning uchun jon qushi hijron atalmish

qafasda hurkib, qo‘rqib yashaydi. G‘urbat, g‘am-u tashvish - inson umrning zavoli. Bu ikki misra hayot haqiqatlarini o‘zida aks ettirgan, shu bois shoir buni aniqlik bilan ifodalagan. Uchinchi va to‘rtinchi misra o‘zaro uyg‘un holatda lirik qahramonning firoyu-g‘urbatining sharhi natijasida ko‘zyoshi nomani nam qilishi tasvirlanadi.

Ishq ishini botin yana bunyod etayin,  
Ishqing g‘ami birla xotirim shod etayin.  
Debsenki, unutmam meni hijron aro, voy,  
Seni unutib ne kishini yod etayin? [Bobur, 1965; 155].

Xosai ruboiy shaklidagi ushbu ruboiyda ham lirik qahramon tuyg‘ularidagi aniqlik ko‘zga tashlanadi. Shu sabab Bobur qofiyadosh so‘zlar sifatida muqayyad qofiya turiga murojaat etgan. *Bunyod – shod – yod* qofiyadosh so‘zlaridagi “d” undoshi raviy sifatida qat‘iylik va aniqlikni yuzaga keltirgan. Demak, lirik qahramon o‘z ah-dida qat‘iy: ishqni boshidan bunyod etishni, ma’shuqa ishq g‘ami bilan xotirini shod etishni maqsad qilgan. e’tibor qilinsa, qofiyadosh so‘zlar sifatida ham asliy qofiyalar tanlangan: raviy asoslar tarkibida joylashgan. Ma’shuqa hijron sabab oshiqdan uni un-utmasligini so‘rayapti. Oshiq uchun esa yorning bu iltimosi g‘ayritabiiy. Chunki oshiq har nafasda yorini eslaydi, uni o‘ylaydi. Chunki yori bunga munosib. Yorni unutib, kimni yod etishi mumkin? Bunga arziri inson bormikan? Shoir tomonidan tanlangan qofiyadosh so‘zlar shoir tomonidan maqsadni berishda muhim ahamiyat kasb etgan. *Bunyod – shod – yod* qofiyadosh so‘zlari qofiya harflarining ishtirokiga ko‘ra murdaf qofiya turini, qofiya qismlarining ishtirokiga ko‘ra esa mutarodif qofiya turini shakllantirgan. Raviydan oldingi ridf – “o” unlisini cho‘ziqligi, yopiq bo‘g‘in tarkibida kelishi aniqlik va qat‘iylik mazmunini kuchaytirishga xizmat qilgan. Qofiyaning bu ikki turi turkiy adabiyotda juda ko‘p qo‘llangan bo‘lib, bu til qonuniyatlaridan kelib chiqqan.

Ahbob, yig‘ilmoqni farog‘at tutungiz!  
Jam‘iyatingiz borini davlat tutungiz!  
Chun gardishi charx budurur, Tangri uchun,  
Bir-birni necha kun g‘animat tutungiz! [Bobur, 1965; 145].

Didaktik ruhdagi ushbu ruboiy tarkibidagi *farog‘at – davlat – g‘animat* qofiyadosh so‘zlar ham asliy qofiya turiga mansub bo‘lib, raviy (“t”) bilan tugagan, muqayyad qofiya turini hosil qilgan. e’tibor qilinsa, bu ruboiydagi qofiyadosh so‘zlar ham aniqlikka asoslangan nasihat, maslahat mazmunida bitilgan.

Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen,  
Sen shu’lasen, ul shu’lag‘a men kuldurmen.  
Nisbat yovqdur deb ijtinob aylamakim,  
Shahmen elga, vale senga quldurmen [Bobur, 1965; 162].

Mumtoz she‘r nazariyasida esa qofiya va undagi har bir harfning o‘rni va ohang-doshligiga alohida e’tibor qilingan va qonuniyatlar ishlab chiqilgan. Shu sababli mumtoz lirik janrlar tarkibidagi qofiyadosh so‘zlarning mukammal tarzda yaratilishi ijodkor mahoratidan darak bergan. Navoiy lirik merosida qofiya va qofiya harflarin-ing o‘rni va ularning shoir maqsadining ifodasi sifatida keltirilishi shoirning poetika ilmining bilimdoni ekanligi va mahoratli shoir ekanligini tasdiqlaydi. Kuzatishlarimiz

shuni ko'rsatadiki, Navoiy ijodida qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra barcha turlari shoirning badiiy mahorati natijasi o'laroq namoyon bo'ladi.

Qofiya harflarining joylashuvi qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra turlarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Qofiyadan oldin joylashuvchi ridf, ta'sis, qayd – qofiya harflari qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad turlarini hosil qiladi. Arabiy, forsiy va turkiy tildagi risolalarning hech birida mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad qofiya turlari alohida sarlavha ostida keltirilmaydi. Bu qofiya turlari qofiya harflari izohi qismida keltiriladi. Bobur garchi qofiya ilmiga oid maxsus risola yaratmagan bo'lsa-da, qofiya harflari va uning qofiyadosh so'z tarkibida to'g'ri joylashuvi borasida fikr-mulohazalari ilmiy risolasida keltirgan. Demakki, shoir o'z ijodida qofiya harflarining ishtiroki borasida qat'iy qoidalarga amal qilgan, kamchiliklar - ayblar bo'lmasligiga harakat qilgan, bu jarayon tug'ma mahorat natijasi o'laroq baytlarga singdirilgan [Orzigul, H., 2023]. Shu jihatdan shoir ijodida qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra barcha turlari uchraydi. Biroq agar Bobur lirikasi, xususan, g'azallarining qofiya tizimini qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsa, shoir ijodida boshqa shoirlardan farqli jihat yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, Bobur ijodida ridfga asoslangan murdaf qofiyaning ishtiroki va unli bilan tugovchi mujarrad qofiyaning ishtiroki teng miqdorda ekanligi shoir ijodida turkiy qofiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Qofiyaning bu jihatiga ko'ra tadqiqi Alisher Navoiy va Bobur g'azaliyoti qiyosi kontekstida olib boriladigan bo'lsa, Alisher Navoiy ijodida murdaf qofiyaning ishtiroki, Bobur lirikasida esa mujarrad qofiyaning ishtiroki ko'pligiga guvoh bo'lish mumkin. Bu esa so'zsiz she'r mohiyati va mazmuni bilan bog'liq. Ridf ishtirokida hosil bo'lgan so'zlarda og'ir, mohiyatan bir necha ma'nolar hukmron bo'ladi. Raviyi unli bilan tugovchi yoki raviydan oldingi tovushning unli bilan iborat bo'lishiga asoslanuvchi, shu qolipdan hosil bo'ladigan so'zlarda aniqlik, yengil ifoda ko'zga tashlanadi.

Zuhd ketti esa, *karam* qildi,  
Ishq keldi-yu *muhtaram* qildi.

Ul alif bo'yliq oyning ishq,  
Meni olam aro *alam* qildi.

Ko'zi-yu zulf-u og'zi furqatida,  
Falak oxir meni *adam* qildi.

Ko'nglum o'rtandi har dam ohimdin,  
Magar el bu o'tni *dam* qildi.

Qoshi yolar hafosidin bu charx,  
Mening otimg'a o'q *raqam* qildi.

Changi g'amdin qutulmadi Bobir,  
Nechakim nola zeru *bam* qildi [Bobur, 1965; 54].

Boburning olti baytli gʻazalidagi *karam-muhtaram-alam-adam-dam-raqam-bam* bir, ikki boʻgʻinli qofiyadosh soʻzlaridagi aniqlik shoir aytmoqchi boʻlgan fikrning keskirligini taʼminlab bergan. Gʻazalning vazni ham bevosita bunga xizmat qilgan.

Zuhd ketti esa, karam qildi,  
- V - - / V - V- / - -

Ishq keldi-yu muhtaram qildi.

- V - - / V - V- / - - (Xaffi musaddasi max-  
buni maqtuʻ)

Shoir tomonidan zuhd va ishqning qiyosiga bagʻishlangan bu misralar Boburning mutasavvif shoir ekanligining yorqin ifodasi sifatida zuhd va ishqning darajoti, ishqning zuhdan yuqori qoʻyilishi, zuhdning ketishi - karam, ishqning kelishi - marhamat ekanligi zidlanadi. Gʻazalning qolgan baytlarida ham bu anʼana, boburona uslub yetakchilik qiladi.

Ne chamanda sarv bor ul qomati raʼno kibi,  
Ne guliston ichra gul bor ul ruxi zebo kibi.

Ne jafo tavrida bor dunyoda ul bemehrdek,  
Ne vafo bobida bor olamda men shaydo kibi.

Donayi xoli Masihoso labining ustida,

Notavon jonimgʻa boʻldi moyai savdo kibi.... [Bobur, 1965; 51].

Boburning oshiqona yoʻlda yozilgan ushbu gʻazalida *raʼno – zebo – shaydo – savdo – maʼvo – bazmoro - ro* qofiyadosh soʻzlari gʻazalning mavzu-mundarijasini koʻrsatib berish barobarida oshiq qiyofasini ham chizib beradi. O unlisi (alif)ning raviy sifatidagi ishtiroki esa unlining tovush imkoniyati - ohangdorligi bilan birga taʼkid maʼnosini ham ifodalaydi. Oshiq maʼshuqasi taʼrifini keltirar ekan, hech bir chamanda yorining qomatidek “qomati raʼno” yoʻqligini, hech bir gulistonda yoridek “ruxi zebo” yoʻqligini faxr bilan tilga oladi. Oshiq nazdida *sarv* va *gul* tashbihlari yorining sifatlarini toʻliq aks ettira olmaydi. Uning qomati shunchaki sarvdek emas, “qomati raʼno”, uning husni, yuzi shunchaki gul emas, “ruxi zebo” ekanligini anʼanaviy tashbihlarga yangicha mazmun yuklagani bilan namoyon boʻladi. Bu novatorlik esa “qomati raʼno” va “ruxi zebo” birikmali qofiyalar asosida ochib berilgan.

Demakki, qofiya harflari asos tarkibidagi shunchaki harf emas, ularning ishtiroki, ular ishtirokidagi soʻzlarning qofiyadosh soʻz sifatida keltirilishi sheʼr mohiyatiga katta taʼsir koʻrsatadi. Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, Bobur ijodida qofiya harflarining ishtirokiga koʻra muassas va muqayyad qofiyaning ishlatilishi miqdoran kam. Xususan, shoir gʻazallari orasida 2 ta gʻazal muassas, 1 ta gʻazal muqayyad qofiya turi shaklidan foydalanib yozilgan. Bu holat, avvalo, shoir gʻazallarining soni bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan mazmun bilan ham aloqador.

Radif bayt misralari oxiridagi takrorlanuvchi soʻz boʻlib, ohangdorlikni taʼminlab beruvchi asosiy unsurlardan biridir. Shamsiddin Qays Roziyning “Almoʻjam” asarida [Qays Roziy, 1991], Atoullloh Husayniyning “Risolai dar qavoyidi

ilmi qavofi” asarining 9-qismida, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr” asarida muraddaf san’ati sharhida [Vatvot, 1985], Nosiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” asarining 2-qism 6-faslida “Qofiya harflari, harakatlari va radif zikri fors olimlari nazdida” faslida [Tusiy, 1992; 122] radif va uning qo’llanishi borasida ilmiy-nazariy fikrlar keltirilgan bo’lib, bu nazariy fikrlar keyinchalik turkiy qofiyashunoslik uchun ham asos vazifasini bajarganini ko’rish mumkin [Hamroyeva, 2022; 44].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, radif masalasi va uning badiiy adabiyotdagi o’rni turkiy adabiyotda yana-da kengaydi va takomillashdi. Turkiy qofiyashunoslikda radif alohida hodisa sifatida qarala boshlandi [Devin DeWeese, 2005; 13]. Buning asosiy sabablaridan biri turkiy tilning gap qurilishi bilan bog’liq. Turkiy tilda kesimning gap so’ngida kelishi va urg’u odatda gapning oxiriga tushishi hodisasi kuzatiladi. Demakki, shoir o’zi ifodalagan kechinma va badiiy maqsadining asosini qofiya va radifda aks ettiradi [Yusufov U., 2020]. Radifning misra so’ngida kelishi va aynan takrordan iborat bo’lishi shoir maqsadining badiiy yechimi bo’lishi bilan birga she’rning asosiy qonuniyatlaridan biri bo’lmish ohangdorlikni ham yuzaga keltiradi.

Turkiy qofiyaning o’ziga xos xususiyatlaridan biri radifning g’azal kompozitsiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligidir. Qofiyaga oid manbalarda radif “forsning ixtirosi” sifatida baholanadi. Turkiy adabiyotda bu ixtiro til qonuniyatidan kelib chiqqan holda lirik janrlarning asosini tashkil qiladi. Xususan, Bobur ijodida radifning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir ruboiylarida radifning yig’iq va yoyiq shakli mohiyatni anglatish, ta’kid ma’nosini anglatga, g’azallarida esa radifning yig’iq shakli qofiya bilan hamohang shoir badiiy maqsadining ifodasi sifatida namoyon bo’ladi.

Hajring g’amidin oqibat o’lgum, qaro ko’z.

Yuz g’ussa-u anduh ila borgum, qaro ko’z.

Vasling bila qilmading ilojin, Bobur,

Mushkulki, firoqingda tirilgum, qaro ko’z [Bobur, 1965; 143].

Takrorga asoslanuvchi radif shoir ruboiylarida ta’kid ma’nosidan tashqari murojaat shaklidagi undalma vazifasida ham keladiki, lirik qahramon o’zining ahvoli borasida yoriga murojaat qiladi, ba’zan shikoyat qiladi. Radif sifatida keltirilgan “qaro ko’z” birikmasi shoirona mahorat bilan sinekdoxa ma’no ko’chishi asosida tasvirlanadi. Shoir “g’uncha lab”, “sarv qad” “qoshi yo” kabi an’anaviy tashbihli sifatlardan ko’ra yorining “qaro ko’z” ekanligiga urg’u beradiki, bu orqali ko’z obrazining badiiy yuki va ramziyligiga ishora qiladi. Yorining surati emas, siyrati muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatib, ko’zda ko’ngil aks etishini birgina “qaro ko’z” tashbihli birikmasi orqali ifodalab beradi.

Bobur g’azallarining deyarli aksariyati muraddaf g’azallar bo’lib, radif sifatida fe’l so’z turkumiga oid so’zlar keltiriladi.

Necha la’lingdin mening bag’rim to’la qon qilg’asen,

Xotirimni necha zulfungdin parishon qilg’asen... [Bobur, 1965; 92].

Yoki

Yana ko’z uyida ma’vo qilibsen,

Ko’ngil koshonasida jo qilibsen... [Bobur, 1965; 93].

Yoki

So‘zlab ul la’li shakarxoni shakarrez etasen,

Ochib ul zulfi sumansoni dilovez etasen... [Bobur, 1965; 91].

Bu holat nafaqat Bobur ijodida, balki turkiy tilda ijod qiluvchi boshqa ijodkorlar ijodida ham uchraydi. Bu turkiy tilning gap qurilishi bilan bog‘liq bo‘lib, kesimning gap so‘ngida kelishiga asoslanadi va aynan gapdagi oxirgi bo‘lak – kesim gapda butun mazmuni o‘zida ifoda etgani bois ham ijodkorlar radif sifatida kesimdan foydalanishgan.

Bobur g‘azallari o‘ziga xos kompozitsion qurilishga ega. Shoir g‘azallarining radiflari fe’l so‘z turkumiga oid. Demakki, radif kelgan o‘rinlarda, muraddaf g‘azallarda qofiyaning boshqa so‘z turkumi bilan ifodalanishi - tabiiy holat. Chunki turkiy tilda gap qurilishi ayni shu shaklda hosil qilinadi. Radifsiz, qofiya bilan tugallanuvchi g‘azallarda bu qonuniyat biroz o‘zgargan, ya’ni inversiya hodisasi kuzatiladi. Shoir gapning kesimini misra o‘rtalarida keltiradiki, qofiya sifatida kelgan so‘zlarning ak-sariyati boshqa so‘z turkumiga oid so‘zlardan tarkib topadi.

Boshda gar yo‘qtur jalolat gavharidin afsare,

Yonima basdur mazallat tufrog‘idin bistare... [Bobur, 1965; 62].

Yoki

Qaysi bir ozorin aytay jonima ag‘yorning,

Qaysi bir og‘ritqonin ko‘nglumni dey dildorning?... [Bobur, 1965; 46].

Yoki

O‘lturur garchi meni guftoring,

Tirguzur ul labi shakarboring... [Bobur, 1965; 47].

Gap qurilishi mohiyatning o‘zgarishiga sabab bo‘lishining yorqin namunasini inversiya hodisasida kuzatish mumkin. Misra so‘ngidagi so‘z – qofiya she’r mohiyatini ifodalaydi.

O‘lum uyqusig‘a borib jahondin bo‘ldum osuda,

Meni istasangiz, ey do‘stlar, ko‘rgaysiz uyquda.... [Bobur, 1965; 29].

Shoir bayt asosini **osuda** va **uyquda** so‘zlari zamiriga qurgan. Shuning uchun ham gap qurilishini o‘zgartirgan: *osuda bo‘ldum emas, bo‘ldum osuda, uyquda ko‘rgaysiz emas, ko‘rgaysiz uyquda*. **Osuda** va **uyqu** so‘zlari bir-birini taqozo qiluvchi mohiyat sifatida keltiriladi. Lirik qahramon jahondan, dunyodan, g‘aflatdan qutulmoq uchun keraksiz narsalardan uzilish, o‘lim uyqusiga borish, o‘lumdek jahonga beparvo bo‘lish kerakligini uqtirib, o‘zining ham ana shunday uyquda ekanligini ta’kidlaydi. Shoirning bu falsafasi ruhiy barkamollik, iymon butunligi, dunyodan, moddiyatdan uzilish borasida eng muhim yo‘lni ko‘rsatib beradi va bu ikki mutanosib so‘z – **osuda** va **uyquda** so‘zlari bayt mazmunini anglashda ochqich vazifasini bajaradi.

## XULOSA

Poetik bilimlar egasi Bobur lirikasida poetik shakllar, vazn, qofiya mazmun ifodasini berishda muhim ahamiyatga ega. Bobur aruz vazni nazariyasini chuqur bilgani va anglagani bois lirik merosining barcha janrlarida vazn imkoniyatlarini ko‘rsatib bera olgan. Ayni xususiyat lirik merosining qofiya tizimida ham ko‘zga tashlanadi.

Xususan, Bobur ruboiylarining qofiya tizimi mukammal va takrorlanmas:

1. Shoir ruboiylaridagi qofiya shunchaki shakl va ohangdoshlik vazifasini emas, mazmundagi yetaklovchi asosiy unsur vazifasini bajargan. Shu bois Bobur qofiyadosh soʻzlar sifatida asl qofiyadosh soʻzlarni tanlagan va shu orqali uning poetik yukini oshirgan. Qofiya baytdagi poetik shakldan koʻra shoirning badiiy maqsadini yetkazuvchi asosiy vosita vazifasini bajargan, shoir ijodida asliy qofiyaning ishtiroki sheʼr butunligini taʼminlab beruvchi asosiy mezon vazifasini bajargan;

2. Shoir ijodida qofiyaning qofiya harflarining ishtirokiga koʻra mujarrad qofiya turining qoʻllanishi yetakchilik qilgan. Bu jarayon sheʼr mazmuniga taʼsir qilgan.

3. Shoir badiiy yukni asosan qofiya va radifga yuklagan, shu bois radifning ishtiroki nisbatan koʻp, shoir ijodida baytning muraddaf shakli salmoqli hajmga ega;

4. Bobur lirikasida inversiya asosidagi joylashuv bayt kompozitsiyasini shakllantirgan, inversiyaga uchragan soʻz qofiya sifatida sheʼr mohiyatini belgilab bergan;

5. Turkiy til gap qurilishidagi qonuniyat shoir sheʼrlarining asosini tashkil etadi: feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlarning qofiya sifatida keltirilishi shoir gaʼzallarining asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasining qofiya tizimi rang-barang va shoir adabiy merosi turkiy qofiyaning nazariy asoslarini yaratishda asosiy manbalardan biri sanaladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arberry, A. (1958). *Classical Persian Literature*. London.
2. Atulloh Husayniy. (h.1393). *Risolai qofiya*. Ba kushish Fozil Abboszoda, Doktor Rajab Tavhidyon. -Tehron.
3. Vaxid Tabrizi. (1959). *Djam i muxtasar*. Kriticheskij tekst, per. i primech. A.Ye. Bertelsa. – Moskva.
4. Bobur, Z.M. (1965). *Asarlar*. 3 jildlik. 1-jild. / Nashrga tayyorlovchi S.Azimjonova, A.Qayumov. Toshkent.
5. Blochmann, H. (1872). *Prosody of the Persians according to Saifi, Jami and other writers*. -Calcutta.
6. Devin DeWeese. (2005). *The Predecessors of Navaʼi in the “Funun ul-balaghah” of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century* // Journal of Turkish studies, edited by Sinasi Tekin, published at Near Eastern Languages and Civilizations Harvard University.
7. Gladwin, F. (1801). *Dissertations on the Rhetoric, Prosody and Rhyme of the Persians*, -Calcutta.
8. Hojiahmedov, A. (1999). *Mumtoz badiiyat malohati*. –Тошкент.
9. Hamroyeva, O. (2022). *Temuriylar davridagi poetikaga doir risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili*. Monografiya. Toshkent. BOOKPRINT.
10. Hamroyeva, O. (2022). *Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari*. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent.
11. Hamroyeva, O. (2024). *Navoiyshunoslik. Navoiy lirikasining qofiya tizimi*. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. BOOKPRINT.
12. Jalolovna, H. O. (2022). *IMPROVEMENT OF THE SCIENCE OF RHYME IN TREATISES OF THE TIMURID PERIOD* // American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 342-348.
13. Koshifi Kamoluddin Husayn Voizi Sabzavori. (h.1369). *Badoeʼu-l-afkor fu sanoeʼi-lashʼor*. Virosta va guzordai Mirchaloluddini Kazzozī. -Tehron.
14. Kamal ad-din Xusayn Va-iz Kashifi. (1977). *Badai al-afkafi san-i al-ashʼor*. (Noviye

- misli o poeticheskom isskusstve). Izdaniye teksta, predisloviye, primechaniya i ukazateli R.Musulmankulova. -Moskva.
15. Krachkovskiy, I.Yu. (1956). *Arabskaya poetika v IX v.* / Izbrannyye proizvedeniya. T.2.- Moskva-Leningrad.
  16. Landau, J. (2013). *De rythme & de raison*. Paris: Presses Sorbonee nouvelle.
  17. Musulmankulov, R. (1989). *Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika X-XV vv.* Moskva.
  18. Muhammad ibn Umur ar-Rodiyoniy. (h.1339)*Tarjumon ul-balog'a*. Bo tasnifi muqaddima va zayli havoshi va tarojimi a'lom ba xomai qavim. Tehron,
  19. Nosir ad-Din Tusi. (h.1325). *Mi'yar al-ash'or*. Tehron.
  20. Nasiruddini To'siy. (1992). *Mi'yar al-ash'or*. / Hozirkunandahoi chop U.Toirov, M.Abdulloev, R.Чалол. –Dushanbe.
  21. Orzigul, H. (2023). BOBUR RUBOIYLARIDA VAZN VA QOFIYA UYG 'UNLIGI. *Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабур в развитии восточной государственности и культуры*, 1(1). <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences4/article/view/430>
  22. Reinert B. (1973). *Probleme der vormongolischen arabisch-persischen Poesiegemeinschaft und ihr Reflex in der Poetik* // “Arabic Poetry: Theory and Development”, -Wiesbaden.
  23. Rashid ad-din Vatvot. (1985). *Xada'iq as-sehr fi daqa'iq ash-shi'r*. Pervod s persidskogo I faksimile. – Moskva.
  24. Rustamov, A. (1976). *Qofiya nima?* Toshkent.
  25. Rustamov A. (1976). *Qofiya strukturasi ga oid bir nazariya haqida* // O'zbek tili va adabiyoti. №3. Toshkent.
  26. Shamsi Qaysi Roziy. (1991). *Al-Mu'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam*. – Dushanbe.
  27. Shayx Ahmad Taroziy. (1996). *Fununu-l-balog'a*. Toshkent.
  28. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. (2016). *Fununu-l-balog'a*. (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev, J.Jo'rayev) Toshkent.
  29. Shamsi Qaysi Roziy. (1991). *Al-Mo'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam*. – Dushanbe.
  30. *Sharq mumtoz poetikasi*. (2006). Hamidulla Boltaboyev talqinida. Toshkent.
  31. Yusufov U. (2020). “*Badoye'ul-afkor*”i *Koshifi va rushdi nazariyoti adabi dar sadai XV*. -Душанбе.

## REFERENCES

1. Arberry, A. (1958). *Classical Persian Literature*. London.
2. Atulloh Husayniy. (AH 1393). *Treatise on Rhyme (Risoi al-Qofiya)*, prepared for publication by Fazil Abbaszoda and Dr. Rajab Tavhidyon. Tehran.
3. Vahid Tabrizi. (1959). Abridged Compilation (*Jam' i Mukhtasar*). Critical text, translated and annotated by A. E. Bertels. Moscow.
4. Babur, Z.M. (1965). *Works*. 3 volumes. Volume 1. Edited by S. Azimjonova and A. Qayumov. Tashkent.
5. Blochmann, H. (1872). *Prosody of the Persians according to Saifi, Jami, and Other Writers*. Calcutta.
6. Devin DeWeese. (2005). *The Predecessors of Nava'i in the “Funun ul-balaghah” of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century* // Journal of Turkish studies, edited by Sinasi Tekin, published at Near Eastern Languages and Civilizations Harvard University.
7. Gladwin, F. (1801). *Dissertations on the Rhetoric, Prosody and Rhyme of the Persians*. Calcutta.
8. Hojiahmedov, A. (1999). *The Charm of Classical Literary Art*. Tashkent.
9. Hamroyeva, O. (2022). *Comparative Analysis of the Science of Rhyme in Treatises from the Timurid Period*. Monograph. Tashkent: BOOKPRINT.
10. Hamroyeva, O. (2022). *Theoretical Foundations of Classical Rhyme*. Textbook. Tashkent.
11. Hamroyeva, O. (2024). *Navoi Studies. The Rhyme System in the Lyrics of Navoi*. Textbook.

- Tashkent: BOOKPRINT.
12. Jalolovna, H. O. (2022). *Improvement of the Science of Rhyme in Treatises of the Timurid Period. American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 342–348.
  13. Koshifi Kamoluddin Husayn Va'iz Sabzavari. (AH 1369). *The Wonders of Thoughts and the Arts of Poetry (Bada'i' al-Afkar fi Sana'i' al-Ash'ar)*. Edited and translated by Mirjalaluddin Kazzazi. Tehran.
  14. Kamal ad-din Husayn Va-iz Kashifi. (1977). *Badai-al-afka- fi san-i al-ash'ar* (New thoughts on poetic art) Edition of the text, preface, notes and indexes by R. Musulmankulova. – Moscow.
  15. Kratchkovsky, I. Yu. (1956). *Arabic Poetics in the 9th Century*. In: *Selected Works*, Vol. 2. Moscow–Leningrad.
  16. Landau, J. (2013). *The Rhythm and Reason (De rythme & de raison)*. Paris: Presses Sorbonne Nouvelle.
  17. Musulmankulov, R. (1989). *Classical Persian-Tajik Poetics (10th–15th Centuries)*. Moscow.
  18. Muhammad ibn Umar ar-Radiyaniy. (AH 1339). *Interpreter of Eloquence (Tarjumān al-Balāgha)* with introduction and commentary. Tehran.
  19. Nasir ad-Din Tusi. (AH 1325). *The Standard of Poetry (Mi'yar al-Ash'ar)*. Tehran.
  20. Nasiruddin Tusi. (1992). *The Standard of Poetry (Mi'yar al-Ash'ar)*. Edited by U. Toirov, M. Abdulloev, and R. Jalol. Dushanbe.
  21. Orzigul, H. (2023). BOBUR RUBOIJLARIDA VAZN VA QOFIYA UYG 'UNLIGI. *Роль наследия Захируддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры*, 1(1). <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences4/article/view/430>
  22. Reinert B. (1973). *Probleme der vormongolischen arabisch-persischen Poesiegemeinschaft und ihr Reflex in der Poetik // "Arabic Poetry: Theory and Development"*, -Wiesbaden.
  23. Rashid ad-Din Vatvat. (1985). *The Gardens of Magic in the Subtleties of Poetry*. (*Hada'iq al-Sihr fi Daqa'iq al-Shi'r*) Translated from Persian with faksimile. Moscow.
  24. Rustamov, A. (1976). *What is Rhyme?* Tashkent.
  25. Rustamov A. (1976). On a theory of rhyme structure // *Uzbek language and literature*. No. 3. Tashkent.
  26. Shams-i Qays Razi. (1991). *The Dictionary of Criteria for Persian Poetry (Al-Mu'jam fi Ma'ayir Ash'ar al-'Ajam)*. Dushanbe.
  27. Shaykh Ahmad Tarozi. (1996). *The Arts of Eloquence (Funun al-Balāgha)*. Tashkent.
  28. Shaykh Ahmad ibn Khudoydod Taroziy. (2016). *The Arts of Eloquence (Funun al-Balāgha)*. Edited by H. Boltaboyev and J. Jo'rayev. Tashkent.
  29. Shams-i Qays Razi. (1991). *The Dictionary of Criteria for Persian Poetry (Al-Mu'jam fi Ma'ayir Ash'ar al-'Ajam)* Dushanbe.
  30. *Classical Poetics of the East*. (2006). Interpreted by Hamidulla Boltaboyev. Tashkent.
  31. Yusufov U. (2020). "Husayn Vaiz Koishifi's work "Badoe ul-afkor" and a source of 15th century literary theory. -Dushanbe.

## MUNDARIJA

### TILSHUNOSLIK

<b>Muhayyo XAKIMOVA.</b> O‘zbek tilida abstrakt nomlar tizimi va uning tasnifi.....	3
<b>Xurshidjon XAYRULLAYEV.</b> Predikativlik hodisasi va uning tilshunoslikda o‘rganilish holati .....	24
<b>Marhabo UMURZOQOVA.</b> Lisoniy shaxs milliy-madaniy o‘ziga xosligini ifodalovchi birliklar xususida .....	43
<b>Shaxnoza ASQAROVA.</b> “Alpomish” dostonidagi fitonimik leksemalarning tarjima muammolari .....	59
<b>Zumrad GAFAROVA.</b> Parallel korpuslarning shakllanishi va tarjimashunoslikdagi ahamiyati.....	72
<b>Bobur QODIROV.</b> Latifa, anekdot va chiste ksenomorf janrlar sifatida.....	89
<b>Oydin BABANIYOZOVA.</b> Herman Hesse asarlarida inson va hayvon obrazlarining lingvopoetik talqini .....	103

### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Orzigul HAMROYEVA.</b> Bobur lirikasida qofiyaning badiiy yuki.....	123
<b>Ozoda TOJIBOYEVA.</b> Muhammad Solihning adabiy merosi va o‘rganilish tarixi .....	138
<b>Dilnoza RUZMATOVA.</b> Abdulrazzoq Gurnaning “Qaqshagan yurak” asarida intertekstuallik va uning xususiyatlari: adabiy ta’sir va dialoglar tadqiqi .....	153
<b>Rashida GULIMMATOVA.</b> Xorijiy ilmiy manbalarda “jadidlar” va “jadidchilik harakati” talqini.....	168

### METODIKA

<b>Alisher QOSIMOV, Nigina RUSTAMOVA, Aziz XOLMATOV.</b> Oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish: talabalarning qarashlari, motivatsiyasi va muammolari .....	185
<b>In Suk JEONG.</b> Mashina yordamida o‘qitishga asoslangan koreyscha idiomalarning madaniy tasnifi .....	202

### JURNALISTIKA

<b>Beruniy ALIMOV.</b> Sun’iy intellektning jurnalistikadagi roli va istiqbollari.....	217
--	-----

## СОДЕРЖАНИЕ

### ЯЗЫКОЗНАНИЕ

<b>Мухайё ХАКИМОВА.</b> Система абстрактных имен в узбекском языке и ее классификация.....	3
<b>Хуршидjon ХАЙРУЛЛАЕВ.</b> Феномен предикативности и состояние его изучения в лингвистике.....	24
<b>Мархабо УМУРЗАКОВА.</b> О единицах, выражающих национально-культурную идентичность языковой личности.....	43
<b>Шахноза АСКАРОВА.</b> Проблемы перевода фитонимических лексем в дастане «Алпамыш».....	59
<b>Зумрад ГАФАРОВА.</b> Формирование параллельных корпусов и их значение в переводоведении.....	72
<b>Бобур КАДИРОВ.</b> Латифа, анекдот и чисте как ксеноморфные жанры.....	89
<b>Ойдин БАБАНИЁЗОВА.</b> Лингвопоэтическая интерпретация образов человека и животного в произведениях Германа Гессе.....	103

### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

<b>Орзигул ХАМРАЕВА.</b> Художественные рифмы в лирике Бабура.....	123
<b>Озода ТАДЖИБАЕВА.</b> Литературное наследие Мухаммада Салиха и история его изучения.....	138
<b>Дильноза РУЗМАТОВА.</b> Интертекстуальность и ее особенности в романе Абдулразака Гурны «Гравийное сердце»: исследование литературных влияний и диалогов.....	153
<b>Рашида ГУЛИММАТОВА.</b> Интерпретация понятий «джадида» и «джадидское движение» в зарубежных научных источниках.....	168

### МЕТОДИКА

<b>Алишер КАСИМОВ, Нигина РУСТАМОВА, Азиз ХОЛМАТОВ.</b> Использование искусственного интеллекта в высшем образовании: взгляды, мотивация и проблемы студентов.....	185
<b>Ин Сук ЧЖОН.</b> Культурная классификация корейских идиом на основе методов машинного обучения.....	202

### ЖУРНАЛИСТИКА

<b>Беруни АЛИМОВ.</b> Роль и перспективы искусственного интеллекта в журналистике.....	217
--	-----

## CONTENTS

### LINGUISTICS

<b>Muhayyo HAKIMOVA.</b> The System of Abstract Names in the Uzbek Language and its Classification .....	3
<b>Khurshidjon KHAYRULLAEV.</b> The Phenomenon of Predicativity and Its Study in Linguistics.....	24
<b>Marhabo UMURZAKOVA.</b> On the Units that Express the National-Cultural Identity of a Language Person.....	43
<b>Shakhnoza ASKAROVA.</b> Features of Translation of Phytonomic Lexemes .....	59
<b>Zumrad GAFAROVA.</b> The Formation of Parallel Corpuses and their Importance in Translation Studies.....	72
<b>Bobur KADIROV.</b> Latifa, Anecdote, and Chiste as Xenomorphic Genres .....	85
<b>Oydin BABANIYOZOVA.</b> A Linguopoetic Interpretation of Human and Animal Images in the Works of Hermann Hesse .....	103

### LITERARY STUDIES

<b>Orzigul HAMROYEVA.</b> Artistic Loads of Rhyme in Babur’s Lyrics.....	123
<b>Ozoda TAJIBAEVA.</b> Literary Heritage and History of the Study of Muhammad Salih .....	138
<b>Dilnoza RUZMATOVA.</b> Intertextuality and its Function in Abdulrazak Gurnah’s “Gravel Heart”: Exploring Literary Influences and Dialogues.....	153
<b>Rashida GULIMMATOVA.</b> Interpretations of the “Jadids” and the “Jadid Movement” in Foreign Scholarly Sources .....	168

### METHODOLOGY

<b>Alisher KOSIMOV, Nigina RUSTAMOVA, Aziz KHOLMATOV.</b> Navigating AI in Higher Education: Student Perceptions, Motivations, and Concerns.....	185
<b>In Sook JEONG.</b> A Machine Learning-Based Cultural Classification of Korean Idioms .....	202

### JOURNALISM

<b>Beruniy ALIMOV.</b> The Role and Prospects of Artificial Intelligence in Journalism.....	217
---	-----